


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


Asosiy tarkib




Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 3 176,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 2,7 % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalar tovar aylanmasi 487,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 16,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 2 688,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 94,5 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 173,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 48,7 %) tashkil etdi.


Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Uyushmagan savdo, mln. so'm



HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 3 176,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 97,3 % ni tashkil etdi.








Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga 84,6 % va yirik korxonalar hissasiga 15,4 % to'g'ri keldi.



ENG YUQORI ULUSH


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Guliston shahri 37,3 % ulush bilan 1 184,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



ENG QUYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Shirin shahar 1,3 % ulush bilan 40,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari	2019-yil yanvar-noyabr	2020-yil yanvar-noyabr

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, 2 688,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 5,5 % ga pasaygan . Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 84,6 % ni tashkil etdi.


Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Shirin sh (99,3 %), Oqoltin (99,1 %), Xovos (89,9 %), Sardoba (98,6 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan Viloyatning barcha shahar va tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining kamayish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Guliston sh (104,9 %), Sirdaryo (99,8 %) va Oqoltin (98,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- noyabr ylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- noyabr ylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	3 176,2	97,3	487,7	116,8	2 688,6	94,5
Guliston sh.	1 184,4	104,9	384,8	110,5	799,6	102,4
Shirin sh.	40,8	95,1	0,3	86,5	40,5	95,2
Yangiyer sh.	244,0	98,4	20,3	87,1	223,7	99,5
Boyovut	136,7	92,7	4,5	207,7	132,2	91,0
Guliston	101,5	86,1	2,5	92,3	99,0	85,9
Mirzaobod	232,9	97,1	37,0	445,0	196,0	84,6
Oqoltin	203,1	98,4	1,8	64,4	201,2	98,9
Sardoba	138,2	70,1	1,9	73,3	136,3	70,1
Sayxunobod	119,9	76,8	3,4	85,8	116,5	76,5
Sirdaryo	679,5	99,8	30,2	133,9	649,3	98,7
Xovos	95,3	97,4	1,0	170,4	94,3	97,0

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2019-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 16,8 % ga o'sdi va 487,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 15,4 % ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 2 688,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 5,5 % ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 84,6 % ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Shirin shahri (99,3 %), Oqoltin (99,1 %), Xovos (98,9 %), Sardoba (98,6 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 15,4 % ni tashkil etib, eng katta ulush Guliston shahri (32,5 %) Mirzaobod (15,9 %), Yangiyer shahrida (8,3 %) kuzatildi.



SIRDARYO VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2020- yil yanvar-noyabr oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 3 729,7 ming so'm (2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 4,5 % ga kamaydi) va Sardoba (68,9 %), Sayxunobod (75,5 %), Guliston (84,4 %) tumanlarida va boshqa barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida kamayish sur'atlari kuzatildi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Guliston shahri (13 015,1 ming so'm), Yangiyer shahri (5 609,6 ming so'm) va Sirdaryo (5 271,9 ming so'm) tumani hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, % da
Sirdaryo viloyati	3 729,7	95,5
Guliston sh.	13 015,1	103,1
Shirin sh.	2 170,6	94,1
Yangiyer sh.	5 609,6	96,6
Boyovut	1 049,8	91,2
Guliston	1 390,5	84,1
Mirzaobod	3 151,9	94,6
Oqoltin	3 882,8	96,5
Sardoba	2 084,0	68,9
Sayxunobod	1 542,6	75,5
Sirdaryo	5 271,9	98,1
Xovos	922,4	95,7

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Dehqon bozorlari




Chorva (parranda) bozorlari


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 173 508,8 mln. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 51,3 % ga kamaydi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi 79 923,9 mln. so'mni (o'zgarish sur'ati 61,7 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 93 584,9 mln. so'mni (o'zgarish sur'ati 41,2 %) tashkil etdi.

**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida 79 923,9 mln. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida 93 584,9 mln. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mln. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mln. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mln. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda
Siirdaryo viloyati	173 508,8	48,7	79 923,9	61,7	93 584,9	41,2
Guliston sh.	42 146,6	61,6	42 118,1	61,6	28,5	34,3
Shirin sh.	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Yangiyer sh.	6 582,1	70,8	6 582,1	70,8	0,0	0,0
Boyovut	11 397,2	42,3	5 062,9	62,2	6 334,3	65,4
Guliston	21 953,0	56,5	1 516,6	106,7	20 418,3	54,6
Mirzaobod	6 149,4	78,3	0,0	0,0	6 149,4	78,3
Oqoltin	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Sardoba	29 183,3	31,9	2 996,7	154,7	26 186,6	25,9
Sayxunobod	30 475,0	43,6	7 073,4	60,3	23 401,6	40,2
Sirdaryo	11 048,9	40,9	11 013,2	40,9	35,7	42,1
Xovos	14 591,5	87,6	3 561,0	166,1	11 030,5	87,3



744,8
mln. so'm

Tuzlamalar



27 941,7
mln. so'm

**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**



1 904,6
mln. so'm

**Quritilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

14 266,0
mln. so'm



**Non va non
mahsulotlari**



7 692,8
mln. so'm

**Sut va sut
mahsulotlari**

1 012,8
mln. so'm



Tuxum

12 043,3
mln. so'm



Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)

1 346,3
mln. so'm



**Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-xashaklar**

2 481,4
mln. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari** (manzarali va
qishloq xo'jaligi)

1 031,2
mln. so'm



Ziravorlar

9 458,9
mln. so'm




Tovuq go'shti

2020-yilning yanvar-noyabr oylarida Viloyatning barcha shahar va tumanlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 79 923,9 mln. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (27 941,7 mln. so'm) to'g'ri keldi.

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2020-yilning yanvar-noyabr oylarida Viloyatning barcha shahar va tumanlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 93 584,9 mln. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi 74 027,6 mln. so'mni, qo'y va echkilar 15 215,7 mln. so'mni, otlar 4 198,4 mln. so'mni, parrandalar 143,1 mln. so'mni, tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:



ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Kichik tadbirkorlik subyektlari

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 841,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 13,6 % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi 250,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 49,4 %), kichik tadbirkorlik subyektlarining savdo tovar aylanmasi 1 590,9 mlrd. so'mni (2,0 % ga kamayish) tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar

Kichik tadbirkorlik subyektlari

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi




Eng yuqori ulushga ega hududlar



**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI**


Ulgurji savdo tovar aylanmasida o'tgan yilga nisbatan yuqori o'sish sur'atlariga ega hududlar, Shirin shahri (113,3 %) Yangiyer shahri (112,4 %), Oqoltin tumanida (105,4 %) kuzatildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda




	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik tadbirkorlik subyektlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	1 841,2	86,4	237,7	49,4	1 590,9	98,0
Guliston sh.	626,6	97,7	44,9	66,9	581,7	101,2
Shirin sh.	327,4	113,3	0,0	112,9	327,4	113,3
Yangiyer sh.	67,3	112,4	0,0	0,0	67,3	112,4
Boyovut	44,2	41,6	30,8	32,7	13,4	110,9
Guliston	61,6	89,9	13,1	55,6	48,6	107,7
Mirzaobod	152,8	97,1	40,6	169,0	112,2	84,2
Oqoltin	43,2	105,4	25,3	106,1	17,9	104,5
Sardoba	35,1	44,7	31,8	42,1	3,3	112,3
Sayxunobod	74,1	48,6	33,4	28,7	40,7	113,9
Sirdaryo	351,5	76,7	16,4	36,3	335,1	81,1
Xovos	57,5	74,6	14,1	38,6	43,4	107,0

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, 1 590,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 2,0 % ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 86,4 % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Yangiyer shahri (100,0 %), Shirin shahri (100,0 %), Sirdaryo (95,3 %), Mirzaobod (73,4 %), Guliston (78,8 %) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Sardoba (9,4 %) tumaniga to'g'ri keldi.



**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi
bo'limi**
Tel.: (67) 225-19-70